


2019-yil 1-avgust holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik sub'yektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-iyul oylarida viloyatimizda 5541 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2781 taga ko'pdir.






Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-avgust holatiga 31359 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 28,0 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 24,2 % savdo, 19,2 % sanoat, 8,6 % qurilish, 7,5 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,1 % tashish va saqlash, 1,6 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 26,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

| | Umumiy soni, birlik | | 01.08.2019 yil | |
|------|---------------------|-------------------|---|-----------------------|
| | 01.08.2018 yil | 01.08.2019 yil | O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % | Jamiga nisbatan, % |
| Jami | 24503 | 31359 | 128,0 | 100 |

shundan:

| | | | | |
|--|------|------|-------|------|
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 1848 | 2360 | 127,7 | 7,5 |
| Sanoat | 4473 | 6026 | 134,7 | 19,2 |
| Qurilish | 2136 | 2703 | 126,5 | 8,6 |
| Savdo | 5542 | 7578 | 136,7 | 24,2 |
| Tashish va saqlash | 776 | 980 | 126,3 | 3,1 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 1517 | 2246 | 148,1 | 7,2 |
| Axborot va aloqa | 417 | 497 | 119,2 | 1,6 |
| Sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 535 | 645 | 120,6 | 2,1 |
| Boshqa turlari | 7259 | 8324 | 114,7 | 26,5 |

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Samarqand shahri (9751 ta), Urgut (2645 ta), Pastdarg'om (2558 ta) va Samarqand (2283 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Qo'shrabot (701 ta), Paxtachi (803 ta) hamda Nurobod (873 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 29786 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 6666 ta (28,8 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 24,1 % savdo, 19,2 % sanoat, 8,6 % qurilish, 7,2 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,1 % tashish va saqlash, 1,6 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 26,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

19,2 %



Sanoat

24,1 %



Savdo

8,6 %



Qurilish

1,6 %



Axborot va aloqa

7,2 %



Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar

3,1 %



Tashish va saqlash

7,2 %



Qishloq, o'rmon va
baliq xo'jaligi

2,1 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy
xizmatlar ko'rsatish


26,9 %



Boshqa
sohalar

Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Samarqand shahri (9319 ta), Urgut (2610 ta), Pastdarg'om (2393 ta) Samarqand (2115 ta) va Payariq (1623 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qo'shrabot (663 ta), Paxtachi (757 ta) hamda Nurobod (808 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-iyul oylarida 5541 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo`lib, bu ko`rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 2,0 martaga ko`pdir.


**Yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning
yillar kesimida soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)



Korxonalar sonining o'sishi, birlikda


Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Samarqand shahri (1711 ta), Samarqand (524 ta), Pastdarg'om (455 ta) va Urgut (359 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qo'shrabot (122 ta), Narpay (131 ta) hamda Paxtachi (138 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko`rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2019-yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan
korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (1826 ta), sanoat (1365 ta), qurilish (511 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (396 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'lqn ni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (83 ta), axborot va aloqa (111 ta) hamda tashish va saqlash (132 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2019-yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan
korxona va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Tijorat korxonalari
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-avgust holatiga 24284 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 5466 ta, oilaviy korxonalar - 3719 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 14581 ta va boshqalar 518 tani tashkil etgan.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat
ko`rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiyligi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**

Mas'uliyati
cheklangan jamiyati



Xususiy korxona



Oilaviy
korxona




Unitar korxona



Aksiyadorlik
jamiyati



Boshqalar




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar


2019-yil 1-avgust holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 477 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 127 taga yoki 36,3 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-avgust holatiga xorijiy kapital ishtirokida 477 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo'lib, bu korxona va tashkilotlarning eng yuqorisi Samarqand shahri (230 ta), Urgut (43 ta), Jomboy (37 ta) va Samarqand (30 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Narpay (5 ta), Paxtachi (6 ta), Nurobod hamda Kattaqo'rg'on (8 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 342 tasi qo'shma korxonalar, 135 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning faollik darajasi, %



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni, birlikda

| | Korxonalar soni | Jamiga nisbatan ulushi, % |
|---------------------------|--------------------|------------------------------|
| Samarqand viloyati | 477 | 100 |
| Samarqand sh | 130 | 48,2 |
| Kattaqo'rg'on sh | 14 | 2,9 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| Oqdaryo | 23 | 4,8 |
| Bulung'ur | 14 | 2,9 |
| Jomboy | 37 | 7,8 |
| Ishtixon | 9 | 1,9 |
| Kattaqo'rg'on | 8 | 1,7 |
| Qo'shrabot | 10 | 2,1 |
| Narpay | 5 | 1,0 |
| Payariq | 9 | 1,9 |
| Pastdarg'om | 19 | 4,0 |
| Paxtachi | 6 | 1,3 |
| Samarqand | 30 | 6,3 |
| Nurobod | 8 | 1,7 |
| Urgut | 43 | 9,0 |
| Tayloq | 12 | 2,5 |

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-iyul oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 94 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 23 taga ko'paygan.

Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning asosiy qismi Samarcand shahar (38 ta yoki jamidagi ulushi 40,4 %), Qo'shrabot (8 ta yoki 8,5 %) va Kattaqo'rg'on shahrida (7 ta yoki 7,4 %), Oqdaryo hamda Samarcand (7 ta yoki 7,4 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Paxtachi, Narpay va Nurobod (1 ta yoki 1,1 %), Ishtixon va Urgut (2 ta yoki 2,1 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.


**2019-yilning yanvar-iyul oylarida
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, birlikda**



Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 17 ta, Turkiya Respublikasi - 17 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 12 ta, Koreya Respublikasi – 9 ta va Afg'oniston Islom Respublikasi - 5 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-iyul oylarida Isroil Davlati, Germaniya Federativ Respublikasi, Belorussiya Respublikasi, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (42 ta), savdo (13 ta), qurilish (12 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (12 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (2 ta), tashish va saqlashda (3 ta) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (4 ta) tashkil etgan.


2019-yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-avgust holatiga viloyatimizda faoliyat ko'ssatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 24146 tani tashkil qilgan. Bu ko'satkich 2018-yil 1-avgust holatiga qaraganda 34,9 % ga oshgan. Faoliyat ko'ssatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 7995 tasi (33,1 %) Samarqand shahri, 2143 tasi (8,9 %) Urgut, 1922 tasi (7,9 %) Pastdarg'om hamda 1832 tasi (7,6 %) Samarqand tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamidagi ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 24146 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 7152 tasi (29,6 %) - savdo, 5692 tasi (23,6 %) - sanoat, 2543 tasi (10,5 %) - qurilish, 2083 tasi (8,6 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi,

2130 tasi (8,8 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 911 tasi (3,8 %) - tashish va saqlash, 461 tasi (1,9 %) – axborot va aloqa sohasi, 505 tasi (2,1 %) - sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 2669 tasi (11,1 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-iyul oylarida 5279 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,1 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Samarqand shahri (1653 ta), Urgut (2143 ta), Pastdarg'om (1922 ta) va Samarqand tumanlari (1832 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Qo'shrabot (439 ta), Paxtachi (524 ta) hamda Nurobod (594 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxona va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (1823 ta), sanoatda (1363 ta), qurilishda (509 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (394 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'lqnini saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (65 ta), axborot va aloqada (111 ta) hamda tashish va saqlashda (132 ta) tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-avgust holatiga 3895 tani tashkil etib, ulardan 3719 tasi yoki 95,5 % faoliyat ko`rsatadi. Bu ko`rsatkich o`tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yxatidan o`tganlarning hamda faoliyat ko`rsatayotganlarning umumiyligi soni o`rtacha 54,8 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 32,8 % yoki 1220 tasi sanoat, 27,7 % yoki 1029 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 21,2 % yoki 787 tasi savdo, 8,0 % yoki 298 tasi tashish va saqlash, 0,3 % yoki 13 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,9 % yoki 33 tasi qurilish, 1,0 % yoki 38 tasi axborot va aloqa hamda 7,3 % yoki 271 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

| | Korxonalar soni | Jamiga nisbatan ulushi, % |
|--------------------|--------------------|---------------------------------|
| Samarqand viloyati | 1366 | 100 |
| Samarqand sh | 361 | 26,4 |
| Kattaqo'rg'on sh | 10 | 0,7 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| Oqdaryo | 39 | 2,9 |
| Bulung'ur | 49 | 3,6 |
| Jomboy | 81 | 5,9 |
| Ishtixon | 120 | 8,8 |
| Kattaqo'rg'on | 30 | 2,2 |
| Qo'shrabot | 7 | 0,5 |
| Narpay | 26 | 1,9 |
| Payariq | 127 | 9,3 |
| Pastdarg'om | 165 | 12,1 |
| Paxtachi | 6 | 0,4 |
| Samarqand | 169 | 12,4 |
| Nurobod | 6 | 0,4 |
| Urgut | 54 | 4,0 |
| Tayloq | 116 | 8,5 |

2019-yil yanvar-iyul oylarida 1366 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,7 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Samarqand shahri (361 ta), Samarqand (169 ta), Pastdarg'om (165 ta) va Payariq tumanlari (127 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Paxtachi va Nurobod (6 ta) hamda Qo'shrabot (7 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2019-yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 32,9 % yoki 450 tasi sanoat, 27,4 % yoki 375 tasi savdo, 26,9 % yoki 368 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 7,2 % yoki 98 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,5 % yoki 7 tasi qurilish, 0,2 % yoki 3 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,7 % yoki 10 tasi tashish va saqlash, 0,7 % yoki 10 tasi axborot va aloqa hamda 3,5 % yoki 45 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Samarqand viloyati
statistika boshqarmasi
statistik registrlarni
yuritish bo'lumi
Tel.:71-230-85-42 (43)**